

---

## The didactic significance of non-traditional teaching methods in developing students' monologic speech competence

**Salisheva Zilola Ismailovna**

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Uzbek State University of World Languages

**Annotation** *This article examines the role and significance of non-traditional lesson formats, particularly museum lessons, excursion-based lessons, and theatre lessons, in developing students' monologic speech competence. In modern education, one of the key tasks is to develop students' independent thinking and their ability to express ideas freely and coherently. From this perspective, non-traditional teaching methods based on practical and creative approaches serve as effective tools compared to traditional lessons. The article analyzes that museum lessons allow students to directly engage with historical and cultural sources and express their impressions orally; excursion lessons promote observation in real environments and presentation of impressions in monologic speech; and theatre lessons enhance students' creative thinking by helping them develop expressive and logically structured speech through role-playing activities. According to the research results, these non-traditional lesson formats increase students' speech activity, expand their vocabulary, and strengthen their ability to present ideas consistently. Moreover, such approaches make the learning process more engaging and effective. The teacher acts as an organizer and facilitator in this process. In conclusion, museum lessons, excursion lessons, and theatre lessons are important pedagogical tools for developing monologic speech competence, and their systematic implementation in education leads to higher learning outcomes.*

**Keywords** *Monologic speech, speech competence, non-traditional lessons, museum lesson, excursion lesson, theatre lesson, communicative approach, creative thinking, pedagogical technology, learning effectiveness*

---

## Talabalarning monologik nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda noan'anaviy o'qitish shakllarining didaktik ahamiyati

**Salisheva Zilola Ismoilovna**

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari, Bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti doktoranti

**Annotatsiya** *Ushbu maqolada talabalarning monologik nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda noan'anaviy dars shakllarining, xususan muzey-dars, sayohat-dars va teatr-darslarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini shakllantirish, nutqni erkin va izchil ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, an'anaviy darslardan farqli o'laroq, amaliy va ijodiy yondashuvga asoslangan noan'anaviy dars shakllari samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada muzey-darslar orqali talabalar tarixiy va madaniy manbalar bilan bevosita tanishib, ularni og'zaki ifodalash imkoniga ega bo'lishi, sayohat-darslar esa*

*real muhitda kuzatish va taassurotlarni monologik nutq orqali bayon etishga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, teatr-darslar talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirib, rollarga kirish orqali nutqni ifodali va mantiqiy shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur noan'anaviy dars shakllari talabalarning nutqiy faolligini oshiradi, ularning so'z boyligini kengaytiradi hamda fikrni izchil bayon etish malakasini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, bunday yondashuvlar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi va tashkilotchi sifatida faol ishtirok etadi. Xulosa qilib aytganda, muzey-dars, sayohat-dars va teatr-dars kabi noan'anaviy shakllar monologik nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib, ularni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar** *Monologik nutq, nutqiy kompetensiya, noan'anaviy dars shakllari, muzey-dars, sayohat-dars, teatr-dars, interfaol ta'lim, kommunikativ yondashuv, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi*

---

## **Дидактическое значение нетрадиционных форм обучения в развитии монологической речевой компетенции студентов**

**Салишева Зилола Исмаиловна**  
*Доктор философии по педагогическим  
наукам (PhD), Доцент кафедры узбекского  
языка и литературы,  
Узбекский государственный университет  
мировых языков*

**Аннотация** *В данной статье рассматривается роль и значение нестандартных форм занятий, в частности музей-уроков, экскурсионных уроков и театральных уроков, в развитии монологической речевой компетенции студентов. В современном образовательном процессе одной из важнейших задач является формирование у студентов самостоятельного мышления, а также развитие умений свободно и последовательно выражать свою речь. С этой точки зрения нестандартные формы обучения, основанные на практическом и творческом подходе, выступают как эффективное средство, в отличие от традиционных уроков. В статье анализируется, что музей-уроки позволяют студентам непосредственно знакомиться с историческими и культурными источниками и выразить свои впечатления в устной форме, экскурсионные уроки способствуют наблюдению в реальной среде и изложению впечатлений в монологической речи, а театральные уроки развивают творческое мышление студентов, помогая им формировать выразительную и логически выстроенную речь через ролевую деятельность. Согласно результатам исследования, данные нестандартные формы занятий повышают речевую активность студентов, расширяют их словарный запас и укрепляют навыки последовательного изложения мыслей. Кроме того, такие подходы делают учебный процесс более интересным и эффективным. Преподаватель в данном процессе выступает в роли организатора и координатора. В заключение следует отметить, что музей-уроки, экскурсионные и*

*театральные уроки являются важными педагогическими средствами развития монологической речевой компетенции, а их системное внедрение в образовательный процесс способствует достижению высоких результатов.*

**Ключевые слова**

*Монологическая речь, речевая компетенция, нестандартные уроки, музей-урок, экскурсионный урок, театральный урок, коммуникативный подход, творческое мышление, педагогическая технология, эффективность обучения.*

**Kirish**

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, darsni qanday usul va yo'llardan foydalangan holda o'tish kerakligi haqidagi savol o'yantirishi, tabiiy. Chunki bugungi kunda dars o'tishning turli usul va yo'llari mavjud. Ushbu maqolamizda dars o'tishning noan'anaviy shakllari haqida fikr yuritimiz. Noan'anaviy dars shakllariga nimalar kiradi va o'qituvchi ulardan qanday foydalanishi mumkin?

Teatr, muzey va sayohat darslari zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchini faollashtiruvchi, tajribaga asoslangan innovatsion shakllar sifatida e'tirof etiladi. Xususan, teatr darslari o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy tajribasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Dorothy Heathcote ta'kidlaganidek, drama asosidagi ta'lim o'quvchilarga tasavvuriy vaziyatlar orqali real hayotni anglash imkonini beradi (Heathcote, Bolton, 1995). Shuningdek, Augusto Boalning fikricha, teatr "hayotga tayyorgarlik mashqi" bo'lib, unda o'quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi (Boal, 1979). Bunday darslarni maqsadli qo'llash talabalarning monologik nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Oliy ta'limda mustaqil ta'lim o'qitishning eng muhim shakllaridan biri bo'lib, u talabalarning mashg'ulotlarga tayyorlanishi, olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash jarayonida o'z individual faolligini oshirishini ham qamrab oladi.

Ma'lumki, o'zbek tili respublikamizning davlat tili sifatida barcha ta'lim bosqichlarida o'qitiladi. Ikkinchi til ta'limida mustaqil ishlarni to'g'ri tashkil etish va ularni nazorat qilishni yaxshi yo'lga qo'yish talabalarning o'zbek tili bilan muntazam shug'ullanishlariga zamin yaratadi.

Ta'kidlash joizki, rus guruhlarida o'zbek tilini turli darajada biladigan talabalar ta'lim olishadi. Bu esa til o'qitish ta'limi jarayonini ancha murakkablashtiradi. Mustaqil ta'lim bo'yicha beriladigan ishlar talabalarga ularning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, bilim darajasi past talabalar bilan ko'proq shug'ullanish va ularni boshqa talabalarga yetkazib olish imkoniyatini ham beradi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlash talabalarning faolligini, ijodkorligini, mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Ko'p yillik amaliyotimiz talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi faoliyatini uyg'unlashtirish auditoriyada olgan bilimlarining mustaqil ishlash vositasida mustahkamlanib borishiga olib keladi. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarning bajarilishi yuzasidan o'qituvchi tomonidan ko'rsatma beriladi, talaba esa topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Talabalarning darsdan tashqaridagi mustaqil ishlarini yo'lga qo'yish uchun esa odatda har bir mavzu uchun alohida bir metod tanlanadi.

Masalan, mustaqil ta'lim mavzusi sifatida berilgan G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini talabalar "Sud jarayoni" strategiyasi asosida o'zlashtirishadi. Ushbu strategiyani tashkil etishda talabalar o'qituvchi

tomonidan avvaldan ogohlantiriladi va tayyorgarliklari tekshirib boriladi. Guruh talabalari "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi asosida ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'zbek tilida mustaqil fikrlash tafakkurini kengaytirish maqsadida guruhlararo bahs-munozara uchun berilgan mavzu yoki asardan parcha berilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi "Men shu kishini tanirdim, lekin uni hech kimga aytgan emasman" jumlasini ekran orqali talabalarga havola qilinadi. Muallifning ushbu gapi yuzasidan birinchi guruh maqollar asosida "O'g'riga do'stona munosabatda bo'lish mumkin emas" degan g'oyani ilgari surib, o'g'ri qoralashadi, ikkinchi guruh esa maqollar asosida "O'g'riga do'stona munosabatda bo'lish mumkin" deya o'z nuqtai nazarini himoya qiladi. Uchinchi guruh hikoyadagi qahramonlarning boshiga tushgan tashvishlarning bosh sababchisini aniqlab, xulosa chiqaradi. Guruhlar tomonidan chiqarilgan xulosaga o'z mulohazalari bilan qo'shilishlari yoki qarshi chiqishlari mumkin. Ushbu jarayon talabalarning monologik bog'lanishli nutq tuzish va so'zlashlari uchun katta imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, ushbu strategiya asosida Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasi tahlil etishlari uchun vazifa sifatida beriladi.

**1-guruh.** *So'zlab beruvchi. Matndagi voqea mazmuniga tayyorlanadi.*

**2-guruh.** *Tadqiqotchi. Qahramonga tavsif beradi.*

**3-guruh.** *Savol tuzuvchi. Hikoya mazmuni bo'yicha savollar tayyorlaydi.*

**4-guruh.** *Izohlovchilar. Lug'at ishini olib borishadi.*

**5-guruh.** *Tasvirlovchi, rassom. Hikoya mazmuniga mos rasm chizishadi.*

**6-guruh.** *Hayot bilan bog'lovchi. Matn mazmunini hayot bilan bog'lashadi.*

Talabalar topshiriqni bajarib bo'lgach, guruhda muhokama qilish ishi qo'shimcha topshiriq sifatida beriladi va barcha topshiriqlar

o'qituvchining bitta umumiy xulosasi asosida umumlashtiriladi.

Ijodiy ishlar ham talabalar tomonidan o'qilgan hikoyalari, asarlari, she'rlari, ko'rgan, shuningdek, eshitganlari asosida yoziladigan mustaqil ishlar hisoblanib, ular asosan mustaqil ta'limda uy vazifasi sifatida bajariladi. Ijodiy ishlarni tashkil etishda talabalar bilan teatr, muzey va boshqa joylarga (shaharning diqqatga sazovor joylari, tarixiy shaharlar) sayohatlar uyushtirishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Auditoriyadan tashqarida olib boriladigan bunday mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati, bir tomondan, talabaning monologik nutqini rivojlantirishga qaratilsa, ikkinchidan, til o'rgatish orqali talabalarga milliy qadriyatlarimiz, milliy ma'naviyatimizni singdirishdan iborat.

**Muzey-dars** zamonaviy darslarning bir turi bo'lib, bunday darslar talabalarda turli xil axborotlar, janr va uslubdagi matnlar bilan ishlash, bahs-munozaralar uyushtirish orqali talabalarning monologik nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ma'lumki, muzey ekspozitsiyalarida shoir, yozuvchi hayoti va ijodiga oid eksponatlar, qiziqarli ma'lumotlar o'rin oladi. Shu bois muzeylarda ekskursiya darslarini tashkil qilish talabalarga o'tilgan mavzularni mustahkamlash, ularning bilimlarini boyitib, yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Muzey-darslarning xususiyati ko'rsatmalilik bo'lib, bu o'rganilayotgan voqea va hodisalarni o'quvchi-talabalarga faqat mavhum so'zlar orqali emas, balki jonli mushohada yordamida idrok qilishlariga imkon beradi, hodisalarning mohiyatini ko'rish asosida bilib olishadi. Muzey darslari esa o'quv jarayonini vizual va madaniy kontekst bilan boyitadi. Zamonaviy muzey pedagogikasi vakili Eileen Hooper-Greenhill muzeylarni faqat eksponatlar saqlanadigan joy emas, balki bilim hosil qilinadigan va talqin etiladigan interaktiv makon sifatida baholaydi (Hooper-Greenhill, 1999). Shu bilan birga, George Heinning konstruktivistik yondashuviga ko'ra, muzeydagi o'rganish jarayoni o'quvchining o'z tajribasi asosida bilimni

mustaqil shakllantirishi orqali samarali bo'ladi (Hein, 1998).

Muzeyga sayohat uyushtirishni alohida mavzu tanlash va unga tuzilgan puxta reja asosida tashkillashtirishdan boshlash kerak bo'ladi. Bu jarayon, albatta, o'quv mashg'ulotlari tarkibiga kiradi va bunda maqsad umumiy sayohat emas, balki muayyan mavzuning yakuni sifatida mustaqil ijodiy va amaliy topshiriqlarni bajarishdan iborat bo'lishi kerak. Bu loyiha tayyorlash, ijodiy ish yozish, slydlar yaratish, videoroliklar tayyorlash, gid rolli o'yinining ishtirokchisi kabi muzey-darslarga qo'yiladigan talablar majmuini tashkil qiladi. Jumladan, muzey-darslarini tashkil etish talablari va shakllarini ishlab chiqqan nemis olimi G. Froydental muzey-darslarning samarali shakllari ommaviy, guruhli va individual bo'lishi mumkinligini ta'kidlab:

- **ommaviy shakli** – teatrlashtirilgan sayohatlar, sayllar, kechalar, olimpiada, yozuvchi, shoir va ularning avlodlari bilan uchrashuvlar, anjumanlar, viktorinalar, debat, ma'ruza, muzey va shaharlarga sayohatlar;
- **guruhliy shakli** – to'garaklar, jurnallar nashr qilish, muzeylarga sayohatlar marshrutini tuzish, videofilmlar tayyorlash;
- **individual shakli** – arxiv hujjat materiallari, ma'ruzalar, referatlar, taqdimotlar tayyorlashdan iborat bo'lishini bildirgan (Salisheva, 2019).

Rus guruhlarida "O'zbek tili" mashg'ulotlarini o'tishda adabiy o'qishni tashkil etishdan oldin ularni taniqli o'zbek yozuvchilari, shoirlari hayoti va ijodi bilan tanishtirish maqsadida muzeylarga ekskursiya o'tkazish samarali natija beradi. Fanning ishchi o'quv taqvim rejasida berilgan "Abdulla Qahhorni xotirlab" nutqiy mavzusida o'tiladigan "Fikrni badiiy uslubda ifodalash" (Muxitdinova, Salisheva, Po'latova, 2012) darsini muzey-dars shaklida o'tish oldindan rejalashtiriladi va muzey-dars Abdulla Qahhor uy-muzeyida tashkil etiladi. Tashkiliy jarayonda talabalar kichik guruhlariga bo'linishadi va ularga Abdulla

Qahhor hayoti va ijodi bilan tanishib kelish; adib asarlari haqida ma'lumot to'plash; o'zi yoqtirgan hikoyalaridan parchani rolli ijro etishga tayyorlanib kelish topshiriqlari oldindan beriladi. Muzey-darsdan keyin, albatta, ushbu mashg'ulotdan olingan taassurotlar va egallangan bilimlar asosida auditoriya mashg'ulotini o'tkazish samarali bo'ladi. Jumladan, ushbu muzey-dars oxirida talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- "Abdulla Qahhorni xotirlab" mavzusida 6 daqiqalik **videolavha** tayyorlash (Abdulla Qahhor hayoti va ijodi, uy-muzeyi haqida to'plangan ma'lumotlar asosida);
- "Biz adib asarlarining shaydosimiz" mavzusidagi suhbatga tayyorlanish;
- Muzey taassurotlari asosida uy inshosi yoki esse yozib kelish;
- "Abdulla Qahhor asarlarining bilimdoni" mavzusida adib asarlaridan badiiy parchalarni rolli ijro etish.

Bunday topshiriqlar muzey-darsda olingan ma'lumotlarni mustahkamlashga, adib asarlariga qiziqishning ortishiga va, eng muhimi, talabalarning o'zbek tilidagi monologik nutqining o'sishiga katta amaliy yordam beradi. Muzey-dars tajribasi muzey-darslarni quyidagi 4 bosqichda o'tkazishni rejalashtirish samarali natija berishi mumkin:

1-tayyorgarlik bosqichi. Bunda o'qituvchi:

- muzey-dars mavzusini, joyini va o'tkazilish vaqtini aniqlaydi;
- muzey xodimlari va dekanat bilan vaqtni aniqlab oladi;
- talabalarni shu darsga oldindan tayyorlash (ularga yozuvchi yoki shoir ijodiga oid ma'lumotlar to'plash, ularning asarlari bilan tanishish, o'qib kelish, she'rlar yodlash, elektron taqdimotlar tayyorlash kabi topshiriqlarni berishi).

2- muzey-darsni o'tkazish bosqichi. Bu

jarayonda:

- talabalarni muzey xodimlari va ichki tartib-qoidalari bilan tanishtirish;
- ekskursiyani oldindan tuzilgan reja asosida tashkil etish;

- muzey-dars jarayonida talabalarning savol-javob bo'yicha faolligini ta'minlash (muzey eksponatlari, adibning hayoti va ijodi bo'yicha);
- muzey-dars jarayonida talabalarning ishtirokchi sifatidagi faolligini ta'minlash (she'rlar o'qish, adibning o'zi yoqtirgan asarlari haqida so'zlab berish).

3-bosqich muzey-darsdan olingan taassurotlar asosida bajariladigan topshiriqlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- muzey-darsdan olingan taassurotlar asosida uy inshosi, esse kabi mustaqil ijodiy ishlarni yozib kelish;
- olingan rasmlar asosida taqdimotlar o'tkazish;
- adib asarlaridan monolog so'zlab berish, she'rlaridan yod aytib berish;
- adibning o'zlari yoqtirgan hikoyalari asosida sahnaviy ko'rinish namoyish etish;
- gid-ekskursovodning monologik nutqini tahlil qilish.

#### **4-muzey-darsning yakunlovchi bosqichida:**

- berilgan topshiriqlarning bajarilishini tekshirish va baholash;
- muzey taassurotlari bo'yicha bahs-munozara tashkil etish;
- rolli o'yin tashkil etish (muzey xodimi, gid, ekskursivod rolini o'ynash).

**Sayohat (ekskursiya) darslari** bevosita tajribaga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu borada David Kolbning tajribaviy o'qitish nazariyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bilim tajribani qayta ishlash orqali shakllanishini ta'kidlaydi (Kolb, 1984). Shuningdek, John Falk va Lynn Dierking tadqiqotlariga ko'ra, sayohat va ekskursiya kabi erkin ta'lim muhitlari o'quvchilarga o'z qiziqishlari asosida bilim olish imkonini yaratadi (Falk, Dierking, 2013).

Sayohat-darslar muzey-darslardan farqli ravishda ko'p hollarda gid-ekskursovodsiz tabiiy va virtual shakllarda tashkil etilishi mumkin. Sayohat-darsni tashkil etishdan oldin o'qituvchi har bir talabaga alohida yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi haqida so'zlab berish, asarlari haqida gapirish, she'rlar yodlab kelish kabi topshiriqlarni beradi. Talabalarni oldindan tayyorlash sayohat darsining natijaviyligini ta'minlaydi. Talabalar sayohat-dars jarayonida oldindan berilgan topshiriqlar bo'yicha adiblar hayot yo'li va boy ijodi haqida ma'lumotlar berishadi, ijodlaridan namunalar keltirishadi.

Huddi shu kabi **teatr-darslar** ham nafaqat tarbiyaviy, balki ta'limiy jihatdan ham nihoyatda samaraliligi bilan ajralib turadi. Keyingi vaqtlarda avvallari darsdan tashqari mashg'ulot sifatida o'tkaziladigan ushbu mustaqil ish turlari dars maqomini olmoqda. Teatr-darslarining boshqa darslardan farqi talabalar professional ijrochilar bilan yaqindan tanishadi, ularni katta sahnada ko'rib, ijrolarini eshitadi. Teatr-darslarda talabalar qahramonlar nutqida o'zbek tilining jozibasini, adabiy tildagi ifoda shakllarini eshitganlari uchun ta'siri kuchli bo'ladi. Aynan aktyorlar nutqi orqali monologik nutqning qo'llanilishi va xususiyatlari (ifodaviyligi, ta'sirchanligi, mantiqiyiligi, sofligi, izchilligi) bilan tanishadi, tilga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Uy topshirig'i sifatida o'ziga yoqqan personajning monologik nutqini tahlil qilish, muzey-dars va teatr-darslarni sayohat-darslaridan oldin tashkil qilish talabalarni o'zlari gid rolini bajarishga ham tayyorlaydi. Bunday darslar har semestrda 1-2 martadan tashkil etilsa, darsning bir xil tarzda ketishidan qutqaradi, talabalarning o'zbek tiliga qiziqishini yanada kuchaytiradi, kommunikativ kompetensiyasini o'stirishga yordam beradi, talabalarning faolligi va ijodkorligini oshiradi.

#### **References:**

1. Muxitdinova, X. S., Salisheva, Z. I., & Po'latova, X. S. (2012). *O'zbek tili (oliy o'quv yurtlari rusiyabon quvvati uchun darslik)*. O'qituvchi.



2. Salisheva, I. (2019). *O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini ta'minlash (Z. Z. bo'yicha)* (Doctoral dissertation).
3. Heathcote, D., & Bolton, G. (1995). *Drama for learning: Dorothy Heathcote's mantle of the expert approach to education*. Heinemann.
4. Boal, A. (1979). *Theatre of the oppressed*. Pluto Press.
5. Hooper-Greenhill, E. (1999). *The educational role of the museum*. Routledge.
6. Hein, G. E. (1998). *Learning in the museum*. Routledge.
7. Kolb, D. A. (1984). *Experiential learning: Experience as the source of learning and development*. Prentice Hall.
8. Falk, J. H., & Dierking, L. D. (2013). *The museum experience revisited*. Routledge.